

USMONIYLAR DAVLATI SUD-HUQUQ TIZIMIDA QOZILIK TUSHUNCHASI

Abdurazzaqova Yulduz Anorboy qizi

TDSHU, 1-kurs magistratura talabasi, Tarix (mamlakatlar va mintaqalar) yo‘nalishi.

E-mail: yulduzabdurazzoqova@icloud.com

Mustafa Karazaybek

Ilmiy rahbar: Dots. Dr.

Annotatsiya: Usmonlilar imperiyasida qozilar, markaziy hukumat tomonidan “kaza” deb ataladigan aholi punktlarida ma’lum bir vaqt davomida fuqarolik boshqaruvchisi, mahalliy ma’mur va mahkama boshlig‘i vazifalarini bajarish uchun tayinlangan davlat amaldori bo‘lib, shariat va ma’muriy ishlar uchun javobgar bo‘lgan. Shahar va mulkiy vazifalari orqali markaziy hukumatning ko‘magi bilan xalqqa xizmat ko‘rsatgan qozilar, bu xizmatlar bajarilayotganda boshqaruvchi sifatida faoliyat yuritgan. Ushbu tadqiqotning asosiy maqsadi Usmonlilar imperiyasida sud, ma’muriy va shahar boshqaruvchisi vazifasini bajaruvchi qozilik tizimini tarixiy tahlil bilan tushuntirishdir. Tadqiqotning asosini tashkil etuvchi sababiy bog‘liqlik, qozilarning bir o‘zi xilma-xil vazifalarni bajarishining sabablarini va asrlar davomida o‘z faoliyati sohasida ko‘rsatgan muvaffaqiyatlarini o‘rganishdan iborat.

Kalit so‘zlar: Adolat, Usmoniylik sud-huquq tizimi, qozilar, qozilarning tayinlanishi

Abstract: In the Ottoman Empire, qazis were public officials appointed by the central government to act as civil administrators, local administrators, and police chiefs for a period of time in settlements called "kaza" and were responsible for shari'a and administrative affairs. has been The qazis, who served the people with the support of

the central government for their urban and property duties, acted as managers while these services were being performed. The main goal of this study is to explain the judicial system in the Ottoman Empire, which performed judicial, administrative and municipal services, with a historical analysis. The causal relationship that forms the basis of the research is a systematic study of the main reasons why judges perform very different tasks under one roof and the success they have shown in their field of activity over the centuries.

Key words: Justice, Ottoman judicial system, judges, appointment of judges

Qozilar Usmoniyilar davlati va sud-huquq tizimining asosiy unsuridir. Usmonlilar imperiyasidagi birinchi qozi Usmon G‘oziy tomonidan Karajahisarga tayinlangan Dursun Fakih bo‘lgan. Adolatni davlatning asosi deb bilgan Usmoniyilar qozilar tayyorlashga alohida e‘tibor qaratganlar. Qozi o‘z ma‘nosida shariat va qonun qoidalarini bajarishga mas‘ul bo‘lgan shaxs sifatida qo‘llanilsa, qozilik idorasi ham o‘z xizmat hududida hukumat tomonidan berilgan buyruqlarni bajarishga mas‘ul shaxs hisoblangan.¹¹

Usmonlilar imperiyasida shahar va qishloqlarning xavfsizligi, jamoat tartibiga mas‘ul bo‘lgan qozi, sud va boshqaruv jihatidan ma‘lum bir ustunlikka ega bo‘lgan kaza deb nomlangan aholi punktlarida faoliyat yuritgan.¹² Kazalar - Usmonli ma‘muriy tashkilotida sanjaklar kichik bo‘linmalarga bo‘linganida paydo bo‘lgan aholi punktlari. Kazalar ma‘muriy birlik sifatida adliya va boshqaruv doirasidagi shahar atrofidagi nohiya va qishloqlarning markazi hisoblanadi.¹³ Shuni ta‘kidlash kerakki, bunday turli vazifalarning bir shaxs zimmasiga jamlanishi faqat Yaqin Sharq mamlakatlarida

¹¹ Uzunçarşılı, İsmail Hakkı (1965), *Osmanlı Devletinin İlmiye Teşkilatı*, Türk Tarih Kurumu Yayınları (Basımevi), 8. Seri, Anqara 83 b.

¹² Eryılmaz, Bilal (2011), *Kamu Yönetimi Düşünceler/Yapılar/Fonksiyonlar/Politikalar*, Güncellenmiş ve İlaveli 4. Baskı Okutman Yayıncılık, Anqara. 201 b.

¹³ Akyılmaz, Bahtiyar (1999), “Osmanlı Devletinde Merkezden Yönetimin Taşra İdaresi”, *Selçuk Üniversitesi Sosyal Bilimler Enstitüsü Dergisi*, Sayı: 4, 139 b.

qozilik vazifasini o‘z zimmasiga olgan qozilarga xos emas. Xuddi shu narsa o‘rta asrlardagi Yevropa shaharlarida ishlagan Londonning Burgermeister yoki Lord Maire kabi shaxslariga ham tegishli bo‘lgan.¹⁴

Qozilar ma’lum muddatga tayinlangan. Qozilarning vakolat muddati, dastlab uch yil bo‘lgan so‘ng ikki yilga va nihoyat, 1006/1597 yildan keyin 20 oyga qisqartirildi. XVIII asrning ikkinchi yarmida bu muddat 18 oygacha qisqargan.¹⁵ Biroq, bir joyda uzoq vaqt ishlagan qozilar ham bor. Jumladan, Qonuniy Sulton Sulaymon davrida Serezda o‘n besh yil qozilik lavozimida ishlagan kishi haqida ma’lumotlar mavjud.

Usmonlilar huquqida sud hokimiyati sultonga tegishli bo‘lib, sultonlar bu vakolatlardan qozilar orqali foydalanganlar. Hukm qilish huquqi vakil orqali sultondan qoziga o‘tgan bo‘lsa-da, sud hokimiyatining haqiqiy egasi bo‘lgan sulton har doim uning o‘rinbosari bo‘lgan qozi tomonidan chiqarilgan qarorlarni nazorat qilish, zarur deb topilganda bekor qilish, qayta ko‘rib chiqish yoki xuddi shu masala bo‘yicha sud jarayonini o‘tkazish uchun boshqa mansabdor shaxsni tayinlash vakolatiga ega edi.¹⁶

Qozilar o‘zlari xizmat qilgan hududdagi hech qanday hokimiyat buyrug‘i olmasdan butunlay mustaqil harakat qilgan bo‘lib, ular faqat sulton va devon oldida mas’ul edilar.¹⁷

Qozilarning eng muhim vazifalari da’volarni ko‘rib chiqish va nizolarni hal qilishdir. Qozilarning vazifalari ularning vakolat muddatlari va xizmat hududlari bilan chegaralangan. Ularning ushbu chegaralardan tashqaridagi qonuniy faoliyati haqiqiy emas edi. Qozilar an’anaviy huquq sohasidagi nizolar bilan bir qatorda shariat huquqi

¹⁴ Ortaylı, İlber (1976), “Osmanlı Kadı’sının Taşra Yönetimindeki Rolü Üzerine”, *Amme İdaresi Dergisi*, Cilt:9, Sayı:1, 95-96 b.

¹⁵ Halil İnalçık, “Kazasker Ruznamçe Defterine Göre Kadılık”, (çev. Bülent Arı), *Adalet Kitabı*, Anqara 2007, 128 b.

¹⁶ Ekinci, Ekrem Buğra (2001), “Osmanlı Hukukunda Mahkeme Kararlarının Kontrolü (Klasik Devir)”, *Türk Tarih Kurumu Vakfı Belleten Dergisi*, Cilt: 65, Sayı: 244, Aralık, 962 b.

¹⁷ Avşar, B.Zakir (2007), *Ombudsman İyi Yönetilen Türkiye İçin Kamu Hakemi*, 1. Baskı, Asil Yayın Dağıtım, Anqara. 50 b.

sohasidagi nizolarni ham ko‘rib chiqardilar. Ilgari musulmon davlatlarida qozilar odatda sha‘riy huquqdan foydalanganlar, dunyoviy sudlar esa ko‘p hollarda an‘anaviy huquqqa muvofiq harakat qilganlar. Usmonlilar barcha sudlar uchun bir xil jazo qonunini belgilab, bu ikkilanishni bekor qilishga uringanlar.¹⁸

Ilber Ortaylining yozishicha, Usmoniylar qozisi asosan uch xususiyatga egadir.¹⁹

Bular:

- Bevosita markaziy hokimiyatga bo‘ysunishi sababli mahalliy boshqaruvchilarning ta‘siri va vakolatlaridan ozod ekanligi;
- Sud qilish va hukm qilish bilan bir qatorda fuqarolik va moliyaviy masalalarda ham vakolatga ega ekanligi;
- Barcha qozilar bir xil iyerarxiya va ma‘lumotga ega bo‘lib, ularning vakolat muddati ular xizmat qilgan hududlarda qisqa muddatlar bilan cheklanganligidir.

Qozilarning ma‘muriy va shaharga oid vazifalari

Qozi o‘zi ishlayotgan hududning fuqarolik boshqaruvchisi bo‘lganligi sababli, u o‘sha hududda ishlaydigan barcha mansabdor shaxslarni nazorat qilish vakolatiga ega bo‘lgan. Shuningdek, u o‘zining ma‘muriy vazifalari nomi bilan davlatga to‘lanadigan soliqlarni yig‘ish uchun ham javobgar bo‘lgan.²⁰

Qozilarning ma‘muriy vazifalarini quyidagicha sanab o‘tish mumkin:²¹

- Shahar boshqaruvi va xavfsizligini ta‘minlash;
- Savdogarlar uyushmalari faoliyatini nazorat qilish;
- Ishlab chiqarish va bozor joylarini nazorat qilish;
- Masjid, vaqf va maktab ma‘muriyatlarini nazorat qilish;
- Shaharning obodonlashtirish tartibini ta‘minlashdir.

Qozi yuqorida tilga olingan barcha vazifalarni yolg‘iz o‘zi bajarmagan. Uning bu vazifalardagi vakolati shundaki, u ishni bevosita bajarish o‘rniga jarayonni nazorat qiluvchi shaxs bo‘lgan. Bu o‘rinda markazdan kelayotgan buyruqlarni e‘lon qilish,

¹⁸ Uriel Heyd, “Studies in old Ottoman criminal law”, Oxford, At The Clarendon Press, 1973, 215 b.

¹⁹ Ortaylı, İlber (1976), “Osmanlı Kadı’sının Taşra Yönetimindeki Rolü Üzerine”, *Amme İdaresi Dergisi*, Cilt:9, Sayı:1, 95 b.

²⁰ Anıl, Yaşar Şahin (1993), *Osmanlı’da Kadılık*, İletişim Yayınları, İstanbul. 47 b.

²¹ Ortaylı, İlber (1994), *Hukuk ve İdare Adamı Olarak Osmanlı Devletinde Kadı*, Turhan Kitabevi, Anqara.34 b.

amalga oshirilgan ishlarni yozib olish va tekshirishlar o‘tkazish qozilarning asosiy vazifasi hisoblanadi. Qozilar bevosita va shaxsan shug‘ullanadigan masalalar sud-huquq masalalaridan iborat bo‘lgan.²²

O‘zi faoliyat yuritayotgan shaharda shahar hokimi sifatida ham tayinlangan qoziga shahar kathudosi, muhtasib, bozorboshi, bosh me‘mor, axlat yig‘uvchi subashi va hunarmand kathudosi deb nomlangan amaldorlar yordam bergan.

Qozilarning sudyalik vazifalari

Qozilar xizmat qiladigan kaza va shaharlarda sha‘riy mahkamalar bo‘lib, bu mahkamalarda ular hanafiy mazhabiga ko‘ra hukm qilishib, ko‘plab masalalar bilan shug‘ullanar edilar. Nikoh, meros taqsimoti, yetimlar va ularni himoya qilish, vasiy tayinlash va ishdan bo‘shatish, vasiyat va vaqf qoidalariga rioya etilishini nazorat qilish, jinoyat, qotillik va boshqa barcha ishlarni shariat sudlarida qozilar hal qilgan.²³

Qozilarning vakolatlari makon jihatdan cheklangan bo‘lgani uchun ular faqat o‘zlari xizmat qilgan hududlardagi da‘volar bilan shug‘ullanishgan. Usmonli sud-huquq tizimida tugallangan ishni o‘sha yoki boshqa sudga topshirish mumkin bo‘lmagan. Bu ishning oliy hokimiyati markazda joylashgan Devon-i Humoyundir. Devon-i Humoyun boshqa sudlar bilan teng huquqli sud emas, balki yuqori sudlov organi bo‘lgan. Shu nuqtai nazardan, devon sulton tomonidan tasdiqlangan va barcha turdagi ishlarni ko‘rib chiqish vakolatiga ega davlat organi hisoblangan.

Qozilar yoki muftiylar sudda o‘z oldilariga kelgan kelishmovchiliklarni bartaraf etish uchun avvalo o‘zlari mansub bo‘lgan mazhablarning fiqh kitoblarini ko‘zdan kechirganlar. Agar izlaganlarini fiqh kitoblaridan topa olmasalar, fatvo kitoblariga va keyinchalik mazhablarida bu masalada aytilgan, lekin unchalik kuchli bo‘lmagan so‘zlarga qarab yechim topishga harakat qilganlar. Natijada bir qarorga kela olmasalar,

²² Feyizoğlu, Hamiyet Sezer - Kılıç, Selda (2005), “Tanzimat Arifesinde Kadılık- Naiplik Kurumu”, Ankara Üniversitesi Dil ve Tarih-Coğrafya Fakültesi Tarih Bölümü Tarih Araştırmaları Dergisi, Cilt: 24, Sayı: 38, 35 b.

²³ Uzunçarşılı, İsmail Hakkı (1965), *Osmanlı Devletinin İlmiye Teşkilatı*, Türk Tarih Kurumu Yayınları (Basımevi), 8. Seri, Ankara. 108-109 b.

boshqa mazhabdan kelib chiqib hukm chiqarar edilar. Shuningdek, qozilar hukmdor chiqargan qonunlardan ham foydalanganlar. Bu qonunlar shar’iy hukmlar yo‘l-yo‘riq ko‘rsatmaydigan masalalarda ya’ni hukmdorga qoldirilgan masalalarda shariat qonunlarga zid bo‘lmagan buyruq va qoidalarni o‘z ichiga olgan. Usmonlilar imperiyasida bu qoidalardan tashkil topgan tuzilma “an’anaviy huquq” deb atalgan.²⁴

Qozilar an’anaviy davlat boshqaruvida hukmdor tomonidan bevosita tayinlangan. Tayinlanadigan qozining ega bo‘lishi kerak bo‘lgan asosiy xususiyatlarni quyidagicha sanab o‘tish mumkin:²⁵

- Qozi avvalo musulmon bo‘lishi kerak;
- Voyaga yetgan bo‘lishi kerak;
- Yuridik qaror qabul qilish qobiliyatiga ega bo‘lishi kerak;
- Xolis bo‘lishi kerak;
- Iymonli va adolatli bo‘lishi kerak;
- Nasl-nasabi haqiqiy bo‘lishi kerak;
- Yuridik bilimga ega bo‘lishi kerak;
- Erkak bo‘lishi kerak. Ayol qanchalik o‘qimishli, bilimli bo‘lmasin, uni qozi etib

tayinlamas edilar.

Qozilikka tayinlanadigan kishi madrasa ta’limini olgan bo‘lishi kerak edi. Madrasa ta’limi asosiy shartlaridan biri ekanligi bilan bir qatorda, qozilikka nomzodlarning qozilik kasbining sharafiga munosib yetuk va halol bo‘lishlari ham talab qilingan.²⁶ Qozilik kasbini uchta kishilardan biri egallashlari mumkin edi: madrasa bitiruvchilari, mudarrislar va boshqa odamlar. “Boshqa odamlar” deb atalganlar, odatda, Usmoniylar imperiyasidagi mansabdor kishilarning farzandlaridir. Bu odamlarning mansab va maoshga ega bo‘lish uchun qozilik lavozimiga tayinlanishi,

²⁴ Ekinci, Ekrem Buğra (2006), *İslam Hukuku Tarihi*, Arı Sanat Yayınları, İstanbul. 152 b.

²⁵ Ortaylı, İlber (1975), “Osmanlı Kadısı: Tarihi Temeli ve Yargı Görevi”, *Ankara Üniversitesi Siyasal Bilgiler Fakültesi Dergisi*, Cilt: 30, 118 b.

²⁶ Anıl, Yaşar Şahin (1993), *Osmanlı’da Kadılık*, İletişim Yayınları, İstanbul. 58-59 b.

ayniqsa, sulton Sulaymon podsholik davridan keyin boshlangan turg'unlik va tanazzul davrida odatiy holga aylangan.²⁷

Usmoniylar sud-huquq tizimi islom dini qonunlari asosida shakllantirilgan. Usmonli ma'muriy va sud tashkilotining tuzilishida Islom dini keltirgan tartibdan tashqari Saljuqiylar davlati merosidan ham foydalanish samarali bo'lgan. Sud hokimiyati nazariy jihatdan sulton qo'lida bo'lsa-da, sulton bu hokimiyatni vakil orqali qozi deb atalgan amaldorlarga topshirgan. Binobarin, qozilar o'z vakolatlaridan foydalangan holda mustaqil ish olib borganlar va adolatni ta'minlashga intilganlar. Xulosa qilib aytganda, qozilik Usmonlilar imperiyasida sud, ma'muriy va shahar xizmatlarini bajargan, vaqti-vaqti bilan zaiflashish davrlariga kirgan, ammo olti asrdan ortiq xizmat qilib, tarixiy izlanishlar mavzusi bo'la olgan Usmoniylar muassasasidir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI: (REFERENCES)

1. Akyılmaz, Bahtiyar, “Osmanlı Devletinde Merkezden Yönetimin Taşra İdaresi”, Selçuk Üniversitesi Sosyal Bilimler Enstitüsü Dergisi, Sayı:4. 1999
2. Anıl, Yaşar Şahin (1993), Osmanlı'da Kadılık, İletişim Yayınları, İstanbul.
3. Anıl, Yaşar Şahin, Osmanlı'da Kadılık, İletişim Yayınları, İstanbul, 1993
4. Avşar, B.Zakir, Ombudsman İyi Yönetilen Türkiye İçin Kamu Hakemi, 1. Baskı, Asil Yayın Dağıtım, Anqara.2007
5. Ekinci, Ekrem Buğra, “Osmanlı Hukukunda Mahkeme Kararlarının Kontrolü (Klasik Devir)”, Türk Tarih Kurumu Vakfı Belleten Dergisi, Cilt: 65, Sayı: 244, Aralık. 2001
6. Ekinci, Ekrem Buğra, İslam Hukuku Tarihi, Arı Sanat Yayınları, İstanbul, 2006
7. Eryılmaz, Bilal (2011), Kamu Yönetimi Düşünceler/Yapılar/Fonksiyonlar/Politikalar, Güncellenmiş ve İlaveli 4. Baskı Okutman Yayıncılık, Anqara.

²⁷ Anıl, Yaşar Şahin (1993), *Osmanlı'da Kadılık*, İletişim Yayınları, İstanbul. 59-62 b.

8. Feyizoğlu, Hamiyet Sezer - Kılıç, Selda, “Tanzimat Arifesinde Kadılık- Naiplik Kurumu”, Ankara Üniversitesi Dil ve Tarih-Coğrafya Fakültesi Tarih Bölümü Tarih Araştırmaları Dergisi, Cilt: 24, Sayı: 38, 2005
9. Halil İnalçık, “Kazasker Ruznamçe Defterine Göre Kadılık”, (çev. Bülent Arı), Adalet Kitabı, Anqara 2007
10. Ortaylı, İlber, “Osmanlı Kadı’sının Taşra Yönetimindeki Rolü Üzerine”, Amme İdaresi Dergisi, Cilt:9, Sayı:1.1976
11. Ortaylı, İlber, “Osmanlı Kadısı: Tarihi Temeli ve Yargı Görevi”, Ankara Üniversitesi Siyasal Bilgiler Fakültesi Dergisi, Cilt: 30, 1975
12. Ortaylı, İlber, Hukuk ve İdare Adamı Olarak Osmanlı Devletinde Kadı, Turhan Kitabevi, Anqara, 1994
13. Uriel Heyd, “Studies in old Ottoman criminal law”, Oxford, At The Clarendon Press, 1973
14. Uzunçarşılı, İsmail Hakkı, Osmanlı Devletinin İlmiye Teşkilatı, Türk Tarih Kurumu Yayınları (Basımevi), 8. Seri, Anqara. 1965